

Farmakokinetik baholash markazi faoliyat yuritmoqda

O'zR FA akad. O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo institutida ilk bor dori preparatlarining farmakokinetikasi va bioekvivalentligini tadqiq qilish markazi tashkil etilgan va faoliyat yuritmoqda.

Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

1. O'zbekiston olimlari tomonidan yaratilayotgan yangi dori vositalari ustida farmakokinetik va biofarmatsevtik tadqiqotlar olib borish, taklif etilayotgan dori shakllarini samaradorligini baholash;
2. O'zbekiston farmatsevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan generik preparatlarni original dori vositalarining farmakokinetik parametrlarini solishtirma tahlillar asosida bioekvivalentligini baholash va tegishli xulosalar berish.



Farmakokinetik ma'lumotlar preparatning bioxavfsizligini sifat va miqdoriy jihatdan aniqlash, yaratilayotgan dori shakllarini u yoki bu yo'l bilan yuborishning afzalliklari va kamchiliklarini ob'ektiv baholash va mos ravishda optimal yuborish yo'llarini tavsiya qilish imkonini beradi. Markaz xodimlari o'zimizda ishlab chiqarilgan va chet eldan keltirilgan dorivor preparatlarni biologik muhitdagi miqdori va ularning metabolitlari miqdorini aniqlashning barcha zamonaviy usullarini egallaganlar.

Laboratoriya zamonaviy analitik jihozlar, mini-vivari va tajriba hayvonlarini saqlash uchun metabolik kameralar bilan jihozlangan. Farmakokinetik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun dasturiy ta'minot mavjud bo'lib, ularning asosiylari bu dorivor moddaning umumiy klirensi, uning organizmda tarqalishining ehtimoliy hajmi va organizmda o'rtacha saqlanish vaqtidir.